# “MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY PEDAGOG FAOLIYATIDA MUAMMOLI TALIM TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH’’

***Qurbonova Kamola Eshmurod qizi***
*SHahrisabz Davlat Pedagogika Instituti*
*“Pedagogika va Psixologiya’’ yo’nalishi*
*Sirtqi 402 –guruh talabasi*

**Annotatsiya**: Maqolada Pedagogning mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy faoliyat hamda pedagogning muammoli talim texnalogiyalaridan foydalanishi haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar**: Salohiyat, Muammoli vaziyat, qobiliyat, Ijtimoiy, texnologiya.

Mustaqillik yillarida inson shahsiga bo’lgan munosabat tubdan o’zgardi.

Ayniqsa o’z ota –onasidan ,yaqin kishilari mehridan mahrumbo’lgan yetim va qarovsiz bolalarga talim –tarbiya berish ,alohida ijtimoiyhimoyaga olish ishlarining samarali yo’lga qo’yilgani tahsinga molikdir.

Bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning shaxs, individual –psixologik va jtimoiy- psixologik hususiyatlarini o’rganishga bag’ishlangan bir qator tadqiqotlar sobiq ittifoqda 50-60 yillarda amalga oshirilgan .Shu tufayli Respublikamizda ko’p yillar mobaynida mehribonlik uylarida tarbiyalanuvch bolalar va o’smirlarning psixololik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish ishlari olib borilmadi.

Ammo mustaqillik yillarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga nisbatan yangicha munosabat uyg’ondi.Respublikamiz hukumati tomonidan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini moddiy ijtimoiy tomonidan qo’llab quvvatlash borasida juda ko’plab qarorla va amaliy tadbirlar ishlab chiqildi.

Bu o’z navbatida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o’rganishga keng yo’l ochib berdi.

Psixolog mehribonlik uylarida ishlayboshlar ekan Psixolog meyoriy hujatlarda ko’rsatilganidek quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi;

Tarbiyalanuvchilarning psixologik jihatidan to’laqonli rivojlanishini taminlash, Shaxs sifatida va intellektual rivojlanish xususiyatlarini, talim tarbiya jarayonidagi buzilishlarining psixologik sabablarini diagnostika qilish va bunday buzilishlarni oldini olish uchun prafilaktik tadbirlar o’tkazishga yo’naltirish kerak.

Psixolog bola xayotidagi ro’ybergan fojianing bola psixik rivojlanishiga tasir etishini susaytirish va tegishli psoxologik metotlarni o’tkazish orqali bola shaxs progress iv shakillanishini taminlash lozim.

Mehribonlik uylari shunday tarbiyaviy muassasadirki ,ularda ishlaydigan psixologchuqur bilimlar bilan bir qatorda malum bir shaxsiy sifatlari ancha rivojlangan bo’lmog’i lozim.Bunday xususiyatlar qatorida quyidagilar asosiy o’rin tutadi:

1. Bolani sevish.
2. Odamlarga bo’lgan qiziqish
3.Psixologik muvozanatni saqlay olish.
4.Qiyinchiliklarga bardosh berish.
5.Jamiyatda yashashni nimanidir olib,nimanidir berishni bilish.
6.O’rganishni bilish.
7.Realizm,hamma narsagareallik nuqtai nazari bilan qarash.
8.Bolalarga yoqishni bilish.
9. O’z-o’zini yaxshianglash va his etish.
10.Ichki kuch quvvatga ega bo’lish.
11.Muloqotchan bo’lish.
12.Yaxshi salomatlikka ega bo’lish.
13.Optimist va hazilkash bo’lish.

Ota-ona mehridan mahrum bo’lganbolalar biln ishlashga kirishishdan oldin psixolog o’zidan ana shu sifatlarni qidirib ko’rmog’i lozim.Psixolog bolalarning psixologik jihatdan normal rivojlanishini taminlashi kerak.

Psixolog olimlardan A.SRotenbyuerg va S.M.Bondorenko mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida tajavvuzkorlikning kelib chiqishiyuzasidan o’z ilmiy qarashlarini bayon etib,quyidagilarni takidlaydilar: “Agar bolalarda izlanuvchanlik faolligi yo’nalishi o’zgartirilsa ularda tajovuzkorlikni yo’qotish mumkin bo’ladi”.

Tadqiqotchilarning takidlashlaricha o’smir va o’spirinlik yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun mehribonlik uyi oxirgi boshpana bo’lib,undan keyin mustaqil hayotga qadam qo’yadi. Mustaqil hayot kechirish tasavvuriga ega bo’lmagan bolalar ko’pincha hayotda qiynalib qoladilar.

Tadqiqotchi N.N.Tolstix tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlar , shuni ko’rsatadiki,kelajakka ishonch, o’ziga nisbatan bo’lgan munosabat,hayotiy rejalar,vaqtinchalik imkoniyat yaratish,o’smirning kamol topishiijtimoiy psixologik vaziyatlar tasiri ostida kichadi. O’smirning psixofiziologik komolotida ijtimoiy vaziyatning roli bu bolalar psixologiyasi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilardagi bir tomonlama faoliyat,motivning kambag’alliginafaqat hayotiy tajribaning yetishmasligi bilan balki ,kattalar bilan munosabatxarakteriga ham bog’liq bo’ladi.

Malumki maktab yoshigacha va kichikmaktab yoshidagibolalar psixikasiningrivojlanishida kattalarning o’rni beqiyosdir. Ularda kattalar bilan munosabatda bo’lish ehtiyoji mehribonlik uyikabi muassasalarda ayniqsa kuchliroq seziladi va alohida xususiyat kasb etadi hamda bunday munosabatlar

tarbiyalanuvchilarning o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bunday vaziyatlarda bolaning tajovvuzkorligi, boshqalarni ayblashi,o'z aybini tan olmaslik, va muammoli vaziyatlardan chiqib keta olmaslik va muammoli vaziyatlardan chiqib keta olmaslik kabi xislatlar namoyon bo'ladi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida o'zlaridan kata yoshdagi kishilar bilan munosabatga kirishishga nisbatan intilishning amalga oshmasligi kattalarga nisbatan tajovvuzkorlikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlardan shu narsa malum bo'ldiki, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar tarbiyachilar yoki kattalarga yoqish uchun,tartibga ichki intizomga bo'ysunishga harakat qiladilar.

Men bugungi maqolamda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilar uchun muammoli talim texnologiyalarini axamyatli tomoni va ularda ijodiy fikirlash qobilyatini shug'unlantirish aqliy faoliyatini yanada rivojlantirish muammoli va ziyodlar va ularning tuzil yechimlarini izlab toppish ,muammoli talimning samaraliy usullari haqida so'z yuritaman .

Bugun zamonaviy talim yoshlardan kuchli salohiyat, raqobatbardosh maxsus qobilyatli zamon bilan hamnafas,maqsadli ilmiy texnika taraqqiyod talabalarga javob beradigan ,mustahkam iroda bo'lishini talab etadi.Bu kabi sifatlarni amalga oshirilishida esa muammoli talim texnalogiyasi muhim ahamyat kasb etadi.

Muammoli talim bu mantiqiy fikirlash, tahlil qilish,izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar,echim toppish ,bilishga qiziqish,ehtiyoj ,usullar qo'llaniladigan bir yangicha tizimdir.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak ushbu muammoli talim mehribonlik uylarida o'tkazilishidam maqsad ularda ziddiyatli holatlarni o'rtaga tashlash orqali o'quvchilar o'qutuvchilar rahbarligida muammoli vaziyatlarni izlab topadilar.Bu esa mehribonlik uylarida bolalarni teran fikirlashiga aqliy - rivojlanishiga va bilim olishiga turtki bo'lishi ularning faoliyatida zarur bo'lgan axborot voqiyalar va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga kata rol o'ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorati 2021/ Siddiqov L.M
2. H.T.Omonov
3. N.X.Xo'jayev
4. S.A.Madyarova
5. E.U.Eshchonov